

*Xo'jamova Mu'tabar Sanaqul qizi*

*NavDPI o'zbek tili kafedrası o'qituvchisi +998934399070 [xo'jamovamotabar@gmail.com](mailto:xo'jamovamotabar@gmail.com)*

## “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA QO‘LLANGAN PAREMALARNING XALQ MAQOLLARI BILAN VARIANTDOSHLIGI

**Annotatsiya:** Maqolada “Lison ut-tayr” asaridagi paremalarning ayrimlarini olib uning hozirgi kundagi variantdoshlari keltirildi va izohlandi. Asarda qo‘llangan paremalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

**Kalit so‘zlar:** ramz, majoz, lug‘aviy ma‘no, paremalardagi sinonimlik

**Annotation:** In the article, some of the verses from " The Language of the Birds " are cited and explained. The characters used in the work have not lost their importance even today.

**Key words:** symbol, metaphor, dictionary meaning, synonymy in parames

Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e‘tiqodini, umuman, xalqning o‘ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqni tilini o‘rganishda uning madaniyatini ham o‘rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta‘kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog‘liq ravishda rivojlangan o‘xshash sistemadir.

Maqol-matal tipidagi paremalar tuzilishi jihatdan yopiq, tugallangan bo‘lganligi uchun ma‘no va intonatsion jihatdan ham tugallangan, sintaktik jihatdan bo‘laklarga bo‘linadigan (agar o‘z ma‘nosida – to‘g‘ri ma‘noda qo‘llangan bo‘lsa), predikativ va modal kategoriyalarga ega bo‘lgan birlikdir. Paremalarda diqqat qaratilgan so‘zlarga logik urg‘u berilib, alohida talaffuz qilinadi.

Paremalarni o‘rganish faqat adabiyotshunoslikka xos bo‘lib qolmay, balki tildagi boshqa leksik va frazeologik birliklar kabi til birligi sifatida tilshunoslikda ham o‘rganilishi zarur. Chunki paremalar ham tilning boshqa birliklari kabi ma‘lum bir qolipda qo‘llanadi, o‘z ma‘nosining motivirovkasiga ega bo‘ladi, ularning sinonim va antonimlari bo‘ladi.

“Lison ut-tayr” dostonida qo‘llangan paremalarning bugungi kundagi sinonimlari bilan tanishib chiqamiz:

LXXVIII bob.

Nasriy bayon:

1.Kimki oshiq bo‘lsa, u o‘z jonidan qo‘rqmaydi.[2.32-bet]

Nazmiy bayon:

1.Berdi Hudhud qavmg‘a mundoq javob,

Kim: – “Bu yanglig‘ onglangiz royi savob.

Kim buy o‘lda ishqdur kulli sifat,

Ishq ahlidin yiroqdur maslahat.

Kimki oshiqdur – anga jondin ne bok.

Kufr olib bermak imondin ne bok.” [1.101-bet]

O‘zbek xalq maqollari bilan ma’nodoshligi:

Hamma dardga bor davo, oshiqlik dardi bedavo. Oshiqlik so‘zining lug‘aviy ma’nosi quyidagicha izohlangan: eng birinchi Ollohga bo‘lgan ishq va ikkinchi o‘rinda u yaratgan, uning aksi bilan yaralganga bo‘lgan ishqdir. Ishaq yo‘liga kirgan inson o‘z jonini o‘ylamaydi, bu yo‘lda qancha qiyinchilik bo‘lsa ham uni bosib o‘tadi.

LXXIX bob.

Nasriy bayoni:

1.Kishi peshonasida yozilganini ko‘rmasdan iloji yo‘q.[2.33-bet]

Nazmiy bayoni:

1.Onda bir dayr ichra erdi zoru mast,

Mastlig‘din dayr elidek butparast.

Chun bu tush bo‘ldi mukarrar ganji roz,

Dedi: – “Bo‘lmas bu balodin ehtiroz

Kimsaga ma‘vo haramdur yo kunisht,

Ko‘rmay o‘lmas ulcha bo‘lmish sarnavisht”. [1.104-bet]

O‘zbek xalq maqollari bilan ma’nodoshligi:

1. Boshga tushganni ko‘z ko‘radi.
2. Taqdirdan qochib bo‘lmaydi.[5.54-bet]
3. Bir boshga bir o‘lim.

Paremaning lug‘aviy ma’nosi taqdir so‘zi orqali ifodalangan. Har bir inson yaralibdiki, uning taqdiri ham o‘zi bilan bitilgan bo‘ladi. Undan hech qachon qochib qutilib bo‘lmaydi. “Chunki bo‘lsa bizga ul mavo nasib, boshimizga harna kelsa yo nasib”, – deydi buyuk shoirimiz Alisher Navoiy.

LXXXV bob.

Nasriy bayoni:

1.Pok yurakli kishilar kimgakim ko‘z tashlar ekan, bu nazar tuproqni kimyoga aylantiradi.

Nazmiy bayoni:

1.Kimga kim aylar nazar ahli safo,

Ul nazar tufroqni aylar kimyo.[1.157-bet]

Bu maqolning hozirgi o‘zbek tilida turli ma’nodosh variantlarini kuzatamiz:

- 1.Yaxshi bilan sirdosh bo‘lsang, yaxshilik bilan unasan.
- 2.Yomon bilan yursang, yomon bo‘lasan, yaxshi bilan yursang, omon bo‘lasan.[5.34-bet]
3. Yaxshi bilan yo‘ldosh bo‘lsang ishing bitar, yomon bilan yo‘ldosh bo‘lsang, boshing ketar.[5.35-bet]
4. Yaxshining ishi – jannat, yomonning ishi – kasofat.[5.37-bet]
5. Yaxshini ko‘rib fikr qil, yomonni ko‘rib shukr qil.[6.363-bet]

Paremaning mazmuni ot so‘z turkumi oldidan belgi bildiruvchi leksemalar orqali ochib berilgan. Bu dunyoda har bir kishi yaxshilik qilishi, o‘zgalarni xojatini chiqarishga harakat qilishi lozim. Bu yaxshilikning javobi, albatta, o‘zingga qaytadi. Afsuski, yomonlikni xush ko‘ruvchi, o‘zgalarga yomonlik tilovchi odamlar ham bor. Bu dunyoda kimga yomonlik qilsang yoki tilasang bu dunyoda qaytmasa, u dunyoda, albatta, o‘zingga sen qilgan yomonlikdan ziyoda bo‘lib qaytadi. Shuning uchun yomonlik qilishdan saqlanish nafaqat o‘zgalarga uchun, balki o‘zingning oxirating uchun ham foydalidir.

Dostonda qo‘llangan paremlar bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslik uchun ham ahamiyatlidir.

XCI bob

Nasriy bayoni:

Dunyo abadiy turish manzili emas.[2.51-bet]

Nazmiy bayoni:

Dedi Hudhudkim: - “Erursen mu’tarif

Kim ishing bo‘lmish gunohdin munharif”

Dahr hud ermas iqomat manzili

Kimki bor oxir o‘lumdir hosili”. [1.163-bet]

Bu jumlaning o‘zbek xalq maqollarida quyidagi ma’nodosh variantlariga duch kelamiz: “O‘lim – haq”, “O‘limdan qochib bo‘lmas”, “O‘lim shoh-u gadoga barobar”[5.241-bet] kabilar lug‘aviy jihatdan ushbu maqollarga mos keladi. Hayot dunyo va oxiratdan iboratdir. Inson jism va ruhdan tashkil topgan. Odamlar bu dunyoni o‘ylab o‘z oxiratlarini unutadilar va boqiy hayot qaysi ekanligining farqiga bormaydi. Faqat jism ehtiyojlarini qondirish bilan o‘z umrlarini o‘tkazadilar. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida yetti vodiyni bosib o‘tish orqali ramzan Simurg‘ aslida Alloh jamoliga yetishishni nazarda tutgan. Ya’ni unga yetishish uchun jismni ruhga bo‘ysundirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. XII tom. Lison ut-tayr. Fan. – Toshkent, 1996
2. A.Navoiy. Lison ut-tayr. Nasriy bayoni [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
3. A. Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019.
4. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Т.,:Ўқитувчи. 1984.
5. Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Sharq nashriyoti, – Toshkent, 2005. 54-bet
6. Шомақсудов Ш, Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Тошкент, 1990. 463-б